

ERNEST XEMINGUEYNING “NOBODY EVER DIES” HIKOYASI BADIY XUSUSIYATLARI HAMDA “SOLDIER`S HOME” HIKOYASINING SYUJETI TAHLILI

Sh.B.Xodjayeva

2-bosqich magistrant, BuxDU

e-mail: s.b.xodjayeva@buxdu.uz

Annotasiya Ernest Xeminguey oz'ining realistik asarlari bilan XX asr Amerika adabiyoti rivojiga yuksak hissa qo'shgan yozuvchilardan biridir. Xususan, uning Ispaniyada bo'lib o'tgan urush voqealariga bag'ishlangan «Nobody Ever Dies» hikoyasida davr muammolari, insonlarning tanazzuli hamda aziyati qalamga olinadi.. Shuningdek, uning «Soldier`s home» asarida urushning askarlar hayotiga qanchalik ayanchli iz qoldirganini hikoyaning syujetini tahlil qilish orqali tanishib chiqamiz. Mazkur maqolada hikoyaning badiiy xususiyatlari, mavzu, g`oya, syujet singari shakl va mazmunini tashkil etuvchi unsurlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ernest Xeminguey, urush, mavzu, ekspozitsiya, avj nuqtasi, tushish harakati, adabiy asboblar, sukunat, o'lim, ozodlik.

Аннотация: Эрнест Хемингуэй — один из писателей, внесших большой вклад в развитие американской литературы XX века своими реалистическими произведениями. В частности, в его рассказе «Никто никогда не умирает», посвященном событиям войны в Испании, написаны проблемы времени, упадок и страдания людей, а также в его произведении «Солдатский дом» мы узнаем, как грустно война оставила след в жизни солдат, анализируя сюжет повести. В данной статье анализируются элементы, составляющие форму и содержание рассказа, такие как художественные особенности, тема, идея, сюжет.

Ключевые слова: Эрнест Хемингуэй, война, тема, экспозиция, кульминация, падающее действие, литературные приемы, тишина, смерть, свобода.

Abstract: Ernest Hemingway is one of the writers who made a great contribution to the development of American literature of the 20th century with his realistic works. In particular, in his novel Nobody Ever Dies, dedicated to the events of the war in Spain, the problems of the time, the decline and suffering of people are written and in his work Soldier's home, we will learn how the war left a sad mark on the lives of soldiers by analyzing the plot of the story. This article analyzes the artistic features of the story, the elements that make up its form and content, such as the theme, idea, and plot.

Key words: Ernest Hemingway, war, theme, exposition, climax, falling action, literary devices, silence, death, liberty.

I. Kirish

Har bir yozuvchi doimo o'z davrining ma'naviy muammolari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ernest Xeminguey ijodi ham bundan mustasno emas. Muallif o'zi yaxshi bilgan, boshidan kechirganlari haqida yozdi hamda shaxsiy hayot tajribasi asosida ijod qasrining poydevori bilan xizmat qildi.

Ernest Xeminguey asarlarini mutolaa qiladigan kitobxon uni har qanday urushni qoralab, uning asorati insoniyatni aziyat chekishga majbur qilayotganini uqtirilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Inson huquqlari yo'lida ozodlik kurashida yolg'iz maydonga tushishning halokatli oqibatlarga olib kelishini oddiy kishilar obrazi orqali ifodalaydi. Ernest Xeminguey 1931-1939 yillari ispan xalqining milliy ozodlik kurashida muxbir sifatida qatnashib, qator betakror asarlar yaratdi. Shu durdonalaridan biri □ «Nobody Ever Dies» hikoyasi 1939 yilda dunyo yuzini ko'rdi.

Ernest Xemingueyning «Nobody Ever Dies» hikoyasi ko'plab tadqiqotlarning obyektiga aylandi. Jumladan, Hendricks kolleji professori Alex Vernonning «Teaching Hemingway and war», Eansville universiteti professorlari Carl Eby, Marc Cirinoning «Hemingway`s Spain» kitoblarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Muallif syujeti juda oddiy va jo'n tuyuladigan «Nobody Ever Dies» hikoyasida bir qator ma'naviy, axloqiy muammolarni mahorat bilan yoritib berganiga tahlillar asnosida ochib berilgan. Garchi bu asar Ispaniyadagi fuqarolar urushi va inqilobchilarning muvaffaqiyatsizliklari haqida yozilgan bo'lsada, uning vatanparvarlik, o'z ishiga sadoqat, o'zi ishongan narsa uchun qurbonlik qilishga tayyorligi asarning yanada kitobxon qalbidan joy olishga va tafakkur qilishga undaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

«Nobody Ever Dies» hikoya kompozitsiyasi uch qismdan iborat. Birinchi qism asarning bosh qahramoni, ispan urushida qatnashgan Enrikening «o'rtoq»lari unga faqat maxfiy so'z bilan kira olishi mumkin bo'lgan uyda qamalib qolganiga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qism urushdagi safdoshining singlisi, hamyurti Mariya unga ovqat olib kelish uchun eshikni taqillatganidan boshlanadi va ular politsiya mashinasi sirenalarini eshitib, bo'sh maydonga qochishga majbur bo'lganlari bilan tugaydi. Oxirgi qismda asosan Mariyaning yolg'iz o'zi qolib qo'rquvdan o'lmasligi va hech qanday ma'lumotni dushmanlariga sotib qo'ymasligini iltijo qilib so'rayotganiga bag'ishlanadi.

Ernest Xemingueyning hikoyalari juda kuchli ma'noga ega, chunki uning asarlaridagi ziddiyatli vaziyatlar har bir kitobxonni chuqur fikr-mulohaza qilishga undaydi.

Asarda Enrike siyosiy ideallarga tayangan holda, oilaviy rishtalarni va shaxslar o'rtasidagi o'ziga xos qadriyatlarni inkor etadi. Buni biz Enrikening Mariyaga urushdagi safdoshlari hattoki Mariyaning ukasining vafot etganligini sovuqqonlik bilan aytib berganidan ko'rishimiz mumkin: «Enrique, how is Chucho?» «Dead at

Lerida.» «Felipe?» «Dead at Teruel.» ««And Vicente?» she asked in a flat noise, her two hands folded on his thigh now. «Dead. At the attack across the road at Celadas.» «Vicente is my brother.» She sat stiff and alone now. Bu suhbatdan Enrikening urush daxshatlarini ko`rib aziyat chekkanidan hattoki hamdardlik tuyg`usidan ham mahrum bo`lgan holda Mariyaga o`lim haqida oddiy holdek so`zlab berganligiga guvoh bo`lishimiz mumkin.

Asarda Enrike Mariya ustidan ba`zi nutq vositalari hamda jimlik orqali hukmronlik qilayotganiga quyidagi asardagi jumlar orqali guvoh bo`lishimiz mumkin. Birinchidan, Mariyaning savollariga to`gridan to`gri buyruqlar bilan uni jim qilishga uringan «It is no good to discuss it. They are dead.» va keyinroq: «Don`t cry, Maria», «What has happened has happened». Ikkinchidan, Enrike Mariyadan ko`ra ko`proq gapirib uning dardiga qarshi chiqadi va o`limni inkor qilishga urinadi («But sometimes the people on our flank would not attack»). Bu jumlar orqali muallif asarda o`lim mavzusiga ko`p e`tibor qaratganini, urush qurbonlarsiz bo`lmasligini kitobxonga yetkazib berishga urinadi.

Asarni adabiy tahlil qiladigan bo`lsak, asar voqealari Ispaniya urushidan keyin Kubadagi xavfsiz xonadonda sodir bo`lganligiga hamda asar hayajonli, yashirin tavsiflarga boy ruhda yozilganiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Asardagi bosh qahramonlar Enrike va Mariya sevishganlar bo`lib, ozodlik uchun kurashda inqilobiy kuchga bog`langan hisoblanadi. Asardagi antagonist Mariya va Enrikeni kuzatib borayotgan sovuqqon, qora tanli leytenantdir. «Nobody Ever Dies» asarida ekpozitsiya □ Enrikening urushdan qaytishi hamda Mariya bilan uchrashishi hisoblansa, rivojlanish nuqtasi □ ularning urush dahshatlari va qurbonlari haqidagi suhbatdir: «There are no foreign countries, Maria, where people speak Spanish. Where you die does not matter, if you die for liberty. Anyway, the thing to do is live and not to die.» «But think of who have died-away from here-and in failures.» «They did not go to die. They went to fight. The dying is an accident.» Asardagi voqealar rivoji sirena ovozlari hamda politsiyaning asar qahramonlarini qo`lga olishi desak mubolag`a bo`lmaydi. Vanihiyat asarning yakuni □ Enrikening vafot etishi bilan Mariyaning politsiyachilar tomonidan shtab-kvartiraga olib ketilishi bilan tugaydi.

Shuningdek, muallifning asardagi asosiy g`oyalardan biri bu: hech kim hech qachon maqsadsiz vafot etmasligidir. Chunki o`sha davrda ko`p qon to`kilgan va odamlar o`z vatanining ozodligi uchun jon taslim qilgan.

Adabiyot deganda hikoya, dramatisatsiya, vaziyat, his-tuyg`ularni ifodalovchi va g`oyalarni tahlil qiluvchi va himoya qiluvchi kompozitsiya tushuniladi. Adabiyotni o`rganishda, fikrimiz, hissiyotimiz va tasavvur kuchimizni badiiy adabiyot orqali jalb qilish juda muhimdir. Badiiy adabiyot odatda odamlar o`rtasidagi o`zaro ta`sirlar haqida bo`ladi, lekin ayni paytda katta o`zaro, to`g`ridan-to`g`ri yoki bilvosita ta`sirni

ham o'z ichiga oladi. U alohida identifikatsiyaga ega, chunki u tarixiy haqiqatdan emas, balki ijodiy, tasavvur kuchidan kelib chiqadi.

Zamonaviy realistik qissaning tipik xususiyatlari quyidagilardan iborat: Uning syujeti ehtimollikka asoslangan bo'lib, sabablar bilan bog'liq voqealar ketma-ketligini tasvirlaydi. Uning vaqti va joyi fantastik emas, balki realistik tarzda aniq belgilangan hamda elementlari - syujet, xarakter, vaziyat, uslub, nuqtai nazar, ironiya, ramz va mavzu bitta ta'sirga qarab ishlaydi va bu hikoyani birlashtirishga xizmat qiladi. Syujet - hikoyadagi voqealarni muallif tomonidan tartibga solish hisoblanadi. Bu tashkiliy printsip bo'lib, voqealar tartibini nazorat qiladi. Ko'pgina badiiy asar syujetlari ziddiyatga yoki qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurashga olib keladi, bu odatda hikoyaning oxirida hal qilinadi, odatda fantastika syujeti ekspozitsiyadan boshlanadi. Ushbu syujetlar inqiroz yoki katta keskinlik lahzalariga olib keladigan ziddiyatning murakkablashishi yoki kuchayishi sifatida rivojlandi. Mojaro avjiga yoki burilish nuqtasiga, natijaga, pasayish harakatiga va ularni hal qilish yoki rad etishga mos keladigan eng katta keskinlik lahzasiga yetishi mumkin.

Badiiy asarlar, garchi real hayotdan olingan bir parcha bo'lsa-da, unda aks ettirilgan voqealar o'sha davrning madaniyati, ijtimoiy ahvoli haqida yetarlicha ma'lumot bera oladi. Amerika adabiyotining yorqin namoyondasi Ernest Heminguey asarlari o'zining mazmunli, chuqur g'oyalari bilan ajralib turadi. Shubhasiz, uning asarlarida ko'tarilgan g'oyalar hozirgacha dolzarb hamda kitobxonlar mutoala qilishi uchun qiziqarli hisoblanadi.

I jahon urushi E.M Xeminguey ijodida tubdan o'zgarishlarga boy bosqichlardan biri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yozuvchining o'sha davrda yozgan asarlarning asosiy mavzusi urush davri va unda yuz bergan voqealar bo'lgan. Adibning 1925-yilda yozilgan «Soldier's home» asari ko'pgina jahon tillariga tarjima qilinib, kishilar qalbidan chuqur joy olgan. Ushbu asarda insoniyat boshiga kulfat solgan I jahon urushidan keyingi voqealar va insonlar hayotiga ta'siri yoritilgan.

Hikoya syujeti

Qisqa hikoyada syujetning besh qismi mavjud: ekspozitsiya, murakkablik, inqiroz yoki avji, tushish harakati va qaror. Ekspozitsiya - bu hikoyaning asosiy ma'lumotlari bilan tanishish. Qisqa hikoya ekspozitsiyadan boshlanadi, u sahnani belgilaydigan (agar mavjud bo'lsa), bosh qahramonlarni tanishtiradi, hikoya ochilishidan oldin sodir bo'lgan voqealarni aytib beradi va bizga tushunish va anglash uchun kerak bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etadi.. Haqiqiy hikoyaning harakati odatda tasodifiy bog'liq bo'lgan harakat yoki voqealar ketma-ketligidan iborat bo'lib, ular xronologik tartibda taqdim etilishi shart emas. Syujet har qanday hikoyadagi voqealarning tartibli tuzilishini yoki Aristotel ta'riflaganidek, "baxtsiz hodisalarning tartibga solinishi" ni anglatadi, shunda hamma qismlar butun uchun muhim bo'lgan taniqli va sababiy bog'liq bo'lgan boshlanishi, o'rtasi va oxiri mavjud.

Biz mazkur maqolada Ernest Hemingueyning «Soldier`s home» asarining syujetini tahlil qilamiz va uning mohirona yozilgan asarining mazmuni bilan yaqindan tanishamiz.

A. Ekspozitsiya

Ekspozitsiya odatda bosh qahramon, voqealarning kelib chiqishi hamda ularning sodir bo`ladigan makoni ya`ni joyini asarning xatboshisida kitobxonga tanishtirishdan boshlanadi. «Soldier`s home» asaridagi ekspozitsiyaga keladigan bo`lsak, birinchi xatboshida bosh qahramon «Amerika Qo'shma Shtatlaridan kelgan askar" sifatida Krebs ismli odamning kiritilishi haqida hikoya qiladi. Keyin u Krebs 1917 yilda Yevropada bo`lib o`tgan Birinchi Jahon urushi haqida hikoya qiladi, bu hikoyadagi voqealar bilan bog'liq ma'lumot sifatida, shuningdek, voqea sodir bo'lgan joy Amerika Qo'shma Shtatlari haqida aytib o`tadi. Yana u Qo'shma Shtatlarning Kanzas shahridagi metodist kollejaridan biriga qo'shilib, urushda qatnashashi, 1917 yildan 1919 yilgacha Germaniyada yashaganligi haqida ma`lumot beradi.

"Krebs went to the war from a Methodist college in Kansas. There is a picture which shows him among his fraternity brothers, all of them wearing exactly the same height and style collar. He enlisted in the Marine in 1917 and did not return to the United State until the second division returned from Rhine in the summer of 1919." (Page 1). Ushbu parchada «picture» timsoli orqali Krebs va qolgan askarlarning bir xil uslubda kiyinishi, bir xil bo`yda bo`lishi urushdan oldingi, O`rta G`arbiy Amerikaning konformistik mentalitetini yoritib bergan.

Ikkinchi xatboshida muallif kitobxonlarga voqealar qanday rivjlanishini ko`rsatish maqsadida Germaniyadagi urushda Krebs bilan birga bo'lgan ikki nemis qizi qo`shilganligi haqida ma`lumot beradi. Bu orqali muallif urush paytidagi ikki nemis qizining vatanparvarligi va harakatlari ushbu hikoyadagi voqealar bilan bog'liqligi, chunki bu Krebsning o'z shahridagi ayollarga bo'lgan munosabatini o'zgartirishini aytib o`tmoqchi bo`ladi. Shunday qilib, asarda urush G'arbiy Yevropa va Sharqiy Evropa o'rtasida sodir bo'lganligi, o'sha paytda Qo'shma Shtatlardan kelgan askarlar Sharqiy Yevropaga hujum qilish uchun G'arbiy Yevropa bilan birlashganliklari, Germaniya G'arbiy Yevropadagi davlat bo'lib, uning askarlari Qo'shma Shtatlarga qo'shilganliklarini ekspozitsiya qismida kuzatishimiz mumkin.

"There is a picture which shows him on the Rhine with two German girls and another corporal. Krebs and the corporal look too big for their uniforms. The German girls are not beautiful. The Rhine does not show in the picture." (Page 1)

Quyidagi berilgan parchada «picture» timsolida esa nemis qizlarining chiroyli emasligi hamda kapral o`ziga kata bo`lgan forma kiyganini G`arbiy Yevropaning urush davridagi insonlarning ahvoli, kiyinishiga ham qanchalik salbiy ta`sir ko`rsatganinini yoritib bergan.

B. Tugun

Ushbu qisqa hikoyaning murakkabliklarini uchinchi, to'rtinchi, o'n birinchi, o'n to'rtinchi va o'n beshinchi xatboshlarida duch kelishimiz mumkin. Chunki bunda mojarolar qiziydi va urush tajribasi Krebsning o'z shahridagi ish va ayollarga bo'lgan munosabatini o'zgartirganda ko'proq ishtirok etadi. Uchinchi xatboshining 4-6 qatorida, Krebsning o'z shahriga ya'ni Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Oklaxoma shaharchasiga qaytishiga uzoq vaqt olganligi, uning shahridagi odamlarni muhim bo'lmagan narsaga ko'p qayg'urgan deya gumon qila boshlashlariga da'vat etadi. Hattoki ular Krebsni aqldan ozgan deb o'ylashadi, chunki Oklaxomadagi urushda qatnashgan boshqa erkaklar birinchi navbatda urush tugaganidan keyin darhol qaytib kelishgan, u esa urush tugaganidan keyin qaytib kelganida juda kech edi.

"There had been a great deal of hysteria. Now the reaction had set in. People seemed to think it was rather ridiculous for Krebs to be getting back so late, years after the war was over" (page 1) Ushbu parchada Oklaxoma aholisining Krebsning urushdan kech qaytishiga hazilomuz munosabatini, jamiyatning urushdan keyin askarlarga bo'lgan nojiddiy munosabatini yoritib berganligida kuzatishimiz mumkin.

To'rtinchi xatboshida, urushda orttirgan tajribasi unga shahardagi odamlarga urush haqida gapirgan yolg'onlari tufayli ta'sir qiladi. Barchaga ayonki, urushda dushmanlarga qarshi turish va ularga yuzma yuz kelish uchun doimo askar tayyor turishi kerak, bunda uni chalg'itadigan boshqa ish bilan shug'ullana olmaydi urushga to'liq e'tibor yoki jiddiylik bilan qarash lozim. Shaharda bo'lsa, urushda boshidan kechirgan voqealarni ko'p o'ylab boshqa hech narsa bilan shug'ullanmaydi, urush haqida o'ylasa u haqida gapirsa o'zini yomon his qiladi va bu holat uzoq davom etadi.

"A distaste for everything that had happened to him in the war set in because of the lies he had told. All of the times that had been able to make him feel cool and clear inside himself when he thought of them, the times so long back when he had done the one thing the only thing for a man to do, easily and naturally, when he might have done something else, now lost their cool, valuable quality and then were lost themselves." (Page 1, 2) Ushbu parchada Krebs o'zining urushdan keyingi tuyg'ulari, urush insonlarga qanchalik darajada psixologik ta'sir qilganliklarini o'zlarining qadriyatlarini, o'zliklarini yo'qotish darajasiga olib kelganinini kuzatishimiz mumkin.

O'n birinchi xatboshining to'rtinchidan yettingacha bo'lgan qatorida, Krebs ayollar bilan bog'liq bo'lgan yana bir murakkablikni boshdan kechiradi. Bu murakkablik haligacha uning urushga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi bilan bog'liq hisoblanadi. U shaharda qizlarning jozibali kiyimlarini kiyib, o'zlarining chiqishlari orqali juda chiroyli yurishlarini urushda uchratgan ayollari bilan solishtiradi va ularning bir biriga zid ekanligini anglab yetadi. Krebs o'z shahridagi qizlarni yaxshi ko'radi, lekin ularga urush haqida yolg'onlar to'qimaslik uchun na ular bilan ishlashni va na uzoq vaqt

sarflashni istaydi. Chunki u urushga to'liq e'tiborni qaratishi va faqat shu haqida o'ylashi kerak deb o'ylaydi.

"Vaguely he wanted a girl but he did not want to have to work to get her He would have liked to have a girl but he did not want to have to spend a long time getting her He did not want to get into the intrigue and the politics. He did not want to tell any more lies. It wasn't worth it." (Page 3). Ushbu parchada aholining urushdan keyin Krebs bilan bo'lgan nojiddiy munosabati, uning hikoyalarini hatto tinglashni istamasdan jamiyatdan ajratib qo'yganliklari uning qizlar bilan bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir qilib ular oldida o'zini noqulay his qilishi va munosabat qurishga ortiqcha vaqt ajratishni istamaganligida ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, u hayotida ayollar bilan bog'liq bo'lgan hech qanday voqealar bo'lishini istamaydi, xususan, u armiyada haqiqattan ham hech qanday qizga muhtoj emasligini anglab yetadi. O'n to'rtinchi xatboshida, Krebs o'z shahridagi bir qiz bilan uchrashishni xoxlasada, bu ish u uchun juda murakkabdek tuyuladi. Uning fikricha, u urushda uchratgan fransuz va nemis qizlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Garchi u o'z shahridagi qizlar bilan uchrashishni xoxlasada, ular bilan ko'p gapira olmaydi va natijada duch kelgan mana shunday og'ir vaziyat tufayli u Germaniyada yashashni afzal deb hisoblaydi.

"Now he would have like a girl if she had come to him and not wanted to talk. But here at home it was all too complicated. He knew he could never get through it all again. It was not worth the trouble. It was the thing about French girls and German girls. There was not all this talking. You couldn't talk much and you did not need to talk. It was simple and you were friends. He thought about French and then he began to think about Germany. On the whole he had like Germany better. He did not want to leave Germany. He did not want to come home. Still, he had come home. He sat on the front porch." (Page 3, 4) Quyidagi berilgan parchada Krebsning uyi ham hikoyada katta rol o'ynashiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Adib qahramonning o'z ayvonida o'tirib shahar ayollarini kuzatishi xuddi urushdagi xandaqlarda dushman harakatlarini kuzatishini ifodalashga harakat qilganini va uy Krebsning urushdan boshdan kechirgan tajribalari va ularga qaytishni istamaganligi sifatida tasvirlanganini kuzatishimiz mumkin.

C. Inqiroz yoki kulminatsiya

Ushbu qisqa hikoyadagi inqiroz yoki avj nuqtasi Krebs duch keladigan qiyinchiliklar haqida hikoya qiladi; Asar boshida vaziyat borgan sari yengilroq bo'lib, Krebs va uning ota-onasi o'rtasida g'oyalar qarama-qarshiligi bo'lganda asarning kulminatsion qismiga olib keladi. Krebsning ota-onasi urush va uning oqibatlari haqida bilgan holda, askar bo'lib qolaversa unda havas qiladigan kelajak bo'lmasligini o'ylab qayg'urishadi va uning boshqa yaxshi kasb tanlashiga hamda uylanishiga umid bog'lashadi. Yetmish birinchi hamda yetmish oltinchi xatboshilarda Krebs ota-

onasining fikrlarini eshitadi va uning qarashlariga zid bo'lganligi tufayli ularning uylanish hamda yaxshi ish topish haqidagi maslahatlariga qarshi chiqadi.

"Is that all?" Krebs said. "Yes. Don't you love your mother, dear boy?" "No," Krebs said. His mother looked at him across the table. Her eyes were shiny. She started crying. "I don't love anybody," Krebs said. It wasn't any good. He couldn't tell her, he couldn't make her see it. It was silly to have said it. He had only hurt her. He went over and took hold of her arm. She was crying with her head in her hands. "I didn't mean it," he said. "I was just angry at something. I didn't mean I didn't love you." His mother went on crying. Krebs put his arm on her shoulder. "Can't you believe me, mother?" "All right," his mother said chokily. She looked up at him. "I believe you Harold." (Page 7, 8)

Mazkur parchada Krebsning urushdan keyin barcha narsaga befarq bo'lib qolgani onasi esa uning hayotiga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, ishga kirishga ya'ni Amerika tizimiga qayta kirishiga undashini ko'rishimiz mumkin.

D. Voqea rivoji

Bunda muallif asardagi chigalliklarni qanday hal qilish mumkinligi bilan shug'ullanganligida ko'rishimiz mumkin. Saksoninchi paragrafda Krebs boshida urush haqidagi onasining fikrlariga qarshi chiqadi, ammo onasining uning go'dakligidan katta qilaganini eshitganidan so'ng tinchlanib unga yaxshi farzand bo'lishga harakat qiladi. Asarda Krebsning onasiga qarata: "I'll try and be a good boy for you." □ deyishi orqalo o'sha davr, jamiyatning ramkalariga moslashishga ichki xoish-istaklariga qarshi chiqib rozi bo'lishi, ya'ni taslim bo'lishi timsolida asardagi avj nuqta pasasib ketayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

E. Yechim

Bunda biz muammoni hal qilish haqida to'xtalib o'tamiz. Oxirgi xatboshida, Krebs boshdan kechirgan muammolar onasiga achinib, uni xafa qilgani uchun hal qilinadi va onasining taklifini qabul qiladi. U shahardagi hayoti davomida ish va ayollar haqida o'ylashga, urush tajribasini unutib, hayotini murakkablashtirmaslikka harakat qiladi. Asarda adib «He would go to Kansas City and get a job and she would feel alright about it. There would be one more scene maybe before he got away.»-deyish orqali Krebsning Amerika Qo'shma Shtatlarining Kanzas-siti shahriga borishga qaror qilishi va u o'zini yaxshi his qila oladigan va undan zavqlana oladigan ish topishini hikoya qilish orqali muammolar asta-sekin hal qilinganini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Ernest Hemingueyning «Nobody Ever Dies» kitobxonni o'sha davr dahshatlarini his qilishga, urushning oqibatlari qanchalik achinarli ekanligini anglab yetishiga, tinchlikni qadriga yetishga undaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarning badiiy yetukligini esa muallifning betakror usuli,

kompozitsiyasini ta'minlab berdi. Ernest Hemingueyning yana bir nodir asari bo'lmish «Soldier`s home»ning syujeti tahliliga kelsak, ekspozitsiya birinchi navbatda Krebsning bosh qahramon sifatida tanishtirilishi, hikoya sodir bo'lgan joy sifatida Qo'shma Shtatlar, urush va nemis qizlari voqeaga oid asosiy ma'lumot sifatida hikoya qilinadi. Ikkinchidan, tugun Krebs duch keladigan mojarolar haqida gapiradi, bu yerda urush tajribasi uning ish va ayolga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Uchinchidan, Krebs va uning ota-onasi o'rtasida qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lganda, Krebs duch keladigan chigalliklar sifatida voqealar rivojlanadi. Bu hikoyaning eng yuqori nuqtasi va hikoyaning burilish nuqtasidir. Vanihoyat, yechim syujetning so'nggi qismi bo'lib, unda Krebs duch kelgan nizolar hal qilinadi. Har ikkala asar ham urush davrida yozilganligi sababli o'zining oddiy, jo'n, tushunarli tili bilan har qanday kitobxonni kata qiziqish bilan o'qishga o'sha davr kechinmalarini his qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) Hemingway, Ernest. By-line: Ernest Hemingway, Selected Articles and Dispatches of Four Decades. Ed.
- 2) William White. New York: Touchstone, 1998.
- 3) □. The Complete Short Stories of Ernest Hemingway. The Finca Vigia Edition. 1987. New York:
- 4) Scribner's, 2003.
- 5) Death in the Afternoon. 1932. New York: Touchstone, 1996.
- 6) Ernest Hemingway on Writing. Ed. Larry W. Phillips. 2nd ed. New York: Touchstone, 1999.
- 7) Herndl, Diane P. «Invalid Masculinity: Silence, Hospitals, and Anesthesia in A Farewell to Arms.»
- 8) The Hemingway Review 21.1 (Fall 2001): 38-52.
- 9) Hovey, Richard B. Hemingway. The Inward Terrain. Seattle: Washington University Press, 1968.
- 10) DiYanni Robert 1990, Literature: Reading fiction, Poetry, Drama and Essay. New York, McGrawHill Publishing Company.
- 11) Hornby A.S. 1995, Oxford Advanced Learner's Dictionary. London: Oxford University press
- 12) Kennedy, XJ. Literature: An introduction to fiction, poetry and drama. Harper Collins, Publisher 1991
- 13) Mandala dalwin 2007, An analysis on the elements of Rotenese Fiction "Bei seuk" Unpublished Thesis
- 14) Marry Elen, 2004, Literary Terms: Elements of fiction Components of Literature [Http://www.bsu.edu/classes/vancamp/li terms.html](http://www.bsu.edu/classes/vancamp/li%20terms.html).
- 15) Meyer, Michael. 1996, The Bedford: Introduction to Literature. California: Mayfield Publishing Company
- 16) Ngongo, Magdalena. 1998. Research in Language Teaching. Artha Wacana Christian University Kupang.
- 17) Rawambaku, Hendrik 2003. Metode Penulisan Karya Ilmiah. Universitas Kristen Artha Wacana. Kupang.
- 18) Reuben, Elements of fiction. From [Http://www.sustan.edu/eng/reuben/pai/](http://www.sustan.edu/eng/reuben/pai/) AXG HTML
- 19) Roberts, V Edgar and Jacobs, E Hendry 1995. Literature: An introduction to Reading and Writing. Englewood Cliffs, New jersey prentice Hal. Inc.